

O'ZINI-O'ZI BAND QILISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MAZMUNI VA AHAMIYATI

CHDPU Pedagogika fakulteti
 Menejment yo'nalishi 24-1 guruh talabasi
Sayfiddinova Sabina Muhiddinova
sayfiddinovasabina888@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zini-o'zi band qilishning ahamiyati, o'zini-o'zi band qilgan fuqarolar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, o'zini-o'zi band qilishning foydali va zarali oqibatlar va „O'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga ohirish tartibi to'g'risidagi nizom“, o'zini-o'zi band qilishda ruxsat etilgan faoliyat turlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'zini-o'zi band qilish, uning foydali va zarali tomonlari, o'zini-o'zi band qilgan shaxslar va ularning daromadi, „O'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga ohirish tartibi to'g'risidagi nizom“, o'zini-o'zi band qilgan shaxslar uchun ish staji, pensiya hisoblanish tartibi.

Abstract: This article details the importance of self-employment, the conditions created for self-employed citizens, the beneficial and harmful consequences of self-employment and „the regulation on the procedure for performing activities as a self-employed person“, the types of activities allowed in self-employment.

Key words: Self-employment, its beneficial and harmful aspects, self-employed persons and their income, „regulation on the procedure for performing activities as a self-employed person“, length of service for self-employed persons, the procedure for calculating pensions.

Аннотация: В настоящей статье подробно описаны значение самозанятости, условия, созданные для самозанятых граждан, полезные и вредные последствия самозанятости и „положение о порядке осуществления деятельности в качестве самозанятого лица“, виды деятельности, разрешенные при самозанятости дано.

Ключевые слова: Положение о самозанятости, ее пользе и вреде, самозанятых лицах и их доходах, „порядок осуществления деятельности в качестве самозанятого лица“, порядок начисления стажа, пенсии самозанятым лицам.

KIRISH

O'zini-o'zi band qilgan shaxslar jamiyatning alohida bo'g'ini sifatida jamiyat taraqqiyoti va aholi farovonligi yo'lida alohida o'rin tutadilar. O'zini-o'zi band qilgan

shaxslar ijtimoiy tomondan fuqarolarni ish bilan ta'minlash, ishsizlikni oldini olish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining, o'rinlarining ko'pligi bilan foyda keltiradi, iqtisodiy tomondan olib qaraydigan bo'lsak ular ham biznesmenlarning bir turi hisoblanadilar ammo biznesmenlardan farqi ular tashkil qilingan faoliyat doirasida ishchilar bilan birgalikda o'zlari ham faoliyat olib borishadi. O'zini-o'zi band qilgan shaxslar faoliyatining rivojlanib, taraqqiy etgan shakli sifatida biznesni ko'rishimiz mumkin.

O'zini-o'zi band qilgan shaxslar – o'z kasbiy faoliyatini o'zi tashkil qilgan, o'z sohasi va yo'nalishi doirasida o'zini-o'zi ish bilan ta'minlagan va ta'minlayotgan shaxslardir. O'zini-o'zi band qilgan shaxslar qatorida biz o'qituvchilik, muhandislik, psixologlik, tikuvchilik kabi kasb egalarini ko'rishimiz mumkin.

O'zini-o'zi band qilgan shaxslarning faoliyati „O'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish chora-tadbiri to'g'risida nizom” bilan tartibga solinadi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zini o'zi band qilgan shaxslar - mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslardir.

O'zbekistonda aholi bandligining “Yakka tartibdagi tadbirkorlik” faoliyati bilan bir qatorda yana “O'zini-o'zi band qilgan shaxslar” ning vujudga kelishi bandlikni ushbu yangicha shaklini ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi. Bozor iqtisodiyotining muhim elementi sifatida mehnat bozori xizmat qiladi. Mehnat bozorining xususiyatlaridan biri ishsizlikning mavjudligidir. Ishdan ayrilgan va uni qayta boshlashga tayyor bo'lgan odam uchun o'z-o'zini ish bilan ta'minlash kabi yangi bandlik imkoniyati vujudga keladi va u aholini kambag'allikdan chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun hozirgi davrda aholini ish bilan band etish, “o'zini-o'zi bandlik” ning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish dolzarb muammo hisoblanadi[2].

O'zini-o'zi band qilishning foydali tomonlari:

- Uydan ishlashning qonuniy imkoniyati. O'zini o'zi band qilganlar soliq tekshiruvlari, jarimalar va noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bo'yicha ayblovlardan qo'rqmasliklari mumkin.
- Tasdiqlangan ish staji va pensiya. O'zini o'zi band qilganlarning ish staji ketaveradi, shuning uchun keksalikda kafolatlangan pensiya naqd deb hisoblash mumkin.

- Rasmiy daromad. Iste'mol kreditlari, imtiyozli qarzlar olish, shuningdek, soliq imtiyozlarini qo'llash mumkin.
- Minimal soliq. Daromad solig'i yoki boshqa yig'implar yo'q. Bir yilda BHMning 1 baravari miqdorida ijtimoiy soliq to'lash kifoya.
- O'ziga o'zi xo'jayin. O'zini o'zi band qiluvchilar uchun mehnat shartnomasi, rahbar va qat'iy ish jadvali yo'q. Sevimli ish bilan xohlagan vaqtda shug'ullanish va bundan qonuniy daromad olish mumkin.
- Mijozlar bazasini kengaytirish. O'zini o'zi band qilgan shaxslar yuridik shaxslardan pul o'tkazish yo'li bilan to'lovlarni qabul qilish uchun bankda osongina hisob ochishlari mumkin. Bundan tashqari, davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik sheriklar orasida ishonchni uyg'otadi.
- Minimal hujjatlar. O'zini o'zi band qilganlar yakka tartibdagi tadbirkorlar singari buxgalteriya hisobini yuritish, hisobot yuborish yoki soliq deklaratsiyasini topshirishlari shart emas. Daromad va xarajatlarni ixtiyoriy ravishda Soliq ilovasida to'g'ridan-to'g'ri kuzatib borishlari mumkin.

O'zini o'zi band qilish faoliyatidan olingan barcha daromadlar jismoniy shaxslar daromad solig'iga (JSHDS) tortilmaydi: qancha topsa ham o'zida qoladi. Bir yilda bir marta BHMning 1 baravari – 2021-yilning 1-avgust holatiga ko'ra 245 ming so'm - miqdorida ijtimoiy soliq to'lashning o'zi kifoya qiladi. To'lovni har qanday to'lov tizimi orqali amalga oshirish mumkin.

O'zini o'zi band qiluvchilar hech qanday sug'urta va boshqa yig'implarni to'lamaydilar.

O'zini o'zi band qilganlarning ruxsat berilgan faoliyat turlari ro'yxatidagi faoliyatdan olingan daromadlarigina JSHDS to'lashdan ozod qilinadi. Agarda daromad boshqa faoliyat turidan olingan bo'lsa, ulardan JSHDS to'lash kerak bo'ladi[3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zini-o'zi band qilishning O'zbekiston hududida qanchalik dolzarb va muhim masalalardan biri ekanligini uning yuqorida keltirib o'tilgan, foydali tomonlari va qulayliklari misolida ko'rishimiz mumkin. O'zini o'zi band qilish faoliyati har qanday jismoniy shaxs bemalol, qiyinchiliklarsiz tashkil qilishi mumkin bo'lgan faoliyat bo'lganligi sababli, bu orqali davlat hududida bir qancha muammolarga ham yechim topilishi mumkin deb qaraladi.

O'zini o'zi band qilish faoliyati O'zbekiston sharoitida bandlikning muqobil shakli sifatida juda katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan,

- Mehnat bozorida ish o'rinlari yetarli bo'lmagan sharoitda aholiga qo'shimcha bandlik imkoniyatini yaratadi.

- Norasmiy sektorda ishlayotganlarni huquqiy maydonga olib chiqadi va ularning faoliyatini rasmiylashtiradi.
- Aholi daromadlari oshadi, chunki o'zini-o'zi band qilgan shaxs o'z mehnati mahsulidan daromad oladi va bu o'z o'rnida oilaviy byudjetni mustahkamlash, kambag'allikni kamaytirishga yordam beradi.
- Ijtimoiy guruhlar uchun qulay imkoniyatlar, ayniqsa, ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun uy sharoitida yoki moslashuvchan jadval asosida ishlash imkonini beradi. Qishloq hududida bandlik muammosini yumshatadi.
- Hunarmandchilik, dehqonchilik, servis xizmati, IT sohalari kabi yo'nalishlarda o'zini-o'zi band qilish kichik tadbirkorlikni rivojlantiradi, mahalliy bozorda yangi xizmatlar va mahsulotlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.
- Soliq bazasini kengaytiradi, byudjet tushumlarini oshiradi, norasmiy mehnatning qisqarishi hisobiga iqtisodiyotdagi shaffoflik ortadi, bandlik darajasi rasmiy statistikalarda yaxshiroq aks etadi. Ushbu jihatlar davlat uchun afzalliklar hisoblanadi.
- Aholining mehnatga bo'lgan faolligini oshiradi, mustaqil daromad toppish motivatsiyasini kuchaytiradi, ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi, chunki ishsizlikning kamayishi ijtimoiy muammolarni yumshatadi.

XULOSA

Mamlakat hududida o'zini-o'zi band qilishning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy tomonlari mavjud bo'lib, ushbu jihatlar davlatni har tomonlama taraqqiy ettirish uchun o'z hissasini sezilarli ko'rsatadi. O'zini-o'zi band qilgan shaxslar mamlakat iqtisodiyotiga hissasi:

- ✓ Bandlik darajasini oshiradi;
- ✓ Daromad manbai va farovonlikni ta'minlaydi;
- ✓ Tadbirkorlikni rivojlantiradi;
- ✓ Soliq tushumlarini oshiradi;
- ✓ Mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi;
- ✓ Hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi;

O'zini-o'zi band qilishning ijtimoiy ahamiyatlari:

- ✓ Aholini rasmiy ish o'rinlari bilan ta'minlash;
- ✓ Oilaviy farovonlikni oshirish;
- ✓ Ijtimoiy tenglikni ta'minlash;
- ✓ Mehnat madaniyatini rivojlantirish;
- ✓ Ijtimoiy muammolarni kamaytirish;
- ✓ Jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirish;
- ✓ Madaniy va milliy qadriyatlarni rivojlantirish.

O'zini-o'zi band qilish faoliyati yuqorida keltirib o'tilgan ahamiyatli jihatlardan ham ma'lumki, faoliyat yuritish natijasida ham davlat ham faoliyat doirasidagi shaxslar foyda ko'rishadi. Bir tomondan biz buni biznes va tadbirkorlikning yengillashtirilgan shakli sifatida ko'rishimiz mumkin, ya'ni daromad, foyda, faoliyat yuritish, yuridik va diplomatik masalalarda tadbirkorlik faoliyatiga yaqin bo'lsada, tadbirkorlik jarayonidan faoliyat ko'lami, yuridik maqomi, soliqqa tortish tartibi, mas'uliyat va majburiyatlari, maqsad va daromad miqyosi, faoliyat barqarorligi jihatlari bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Respublikada shaxsning o'zini-o'zi band qilishi hamda ishsizlik darajasidagi o'zgarishlar tahlili. / Rustamov.A.B.
2. Aholining o'zini o'zi bandligini rivojlantirishning nazariy asoslari. / Xasanova.S.I.
3. Aholining o'zini-o'zi band bandligini rivojlantirishning nazariy asoslari. / Xasanova.S.I.
4. O'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga ohirish tartibi to'g'risidagi nizom.
5. Iqtisodiyot nazariyasi. / Shodmonov.S.S., Alimov.R.X., Jo'rayev.T.T.
6. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishning mohiyati. / Saidovna.Q.N.
7. <https://www.gazeta.uz> sayti.
8. <https://kapital.uz> sayti.